

YANGI O'ZBEKISTON–YOSHLAR MAMLAKATI

*Meliqulov Sherzod**O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti**Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti**O'zga tili guruhlarda rus tili yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga qaratayotgan e'tibori va yoshlarning bunga javoban natijalari, ta'lim tizimi yoshlar muammolari va ularning yechimi, yaratilayotgan shart-sharoitlar va islohotlar samaradorlig haqida ushbu maqolada batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, innovatsiya, konstitutsiya, korrupsiya, islohotlar, istiqbol, kelajak, yutuq, natija, kamolot, ta'lim-tarbiya, odob-axloq ilm-fan,

Yurtimiz – baxtiyor yoshlar mamlakati, desak, aslo mubolag'a emas. Aholimizning qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni- 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar tashkil etadi.

Albatta bu voqelik davlatimiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi, jamiyatimizdan juda katta e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni talab etadi. Binobarin, yoshlarimizga ko'rsatiladigan har qanday e'tibor ertaga o'zining ulkan yutuq va natijalarini ham beradi.

Yosh avlod kelajagi hamisha O'zbekiston davlat siyosatining markazida bo'lgan. Bugun ham yurtimizda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, yoshlarning kamoloti va tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi shart-sharoit yaratish uchun barcha sohada keng ko'lamli islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda.

O'zbekiston haqiqiy ma'noda yoshlar mamlakati. Bu yurtda ulg'ayayotgan yigit-qizlarning orzulari va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bisyor. Davlat rahbarining tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi esa ularga bu maqsadlarni amalga oshirishda ko'mak beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning: “Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim”, so'zlari yoshlar uchun katta marralar sari yo'l ochdi.

Binobarin, mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 41-moddasida bepul umumiy ta'lim olish huquqining yoshlar uchun kafolatlangani ham e'tiborga molikdir. Shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqi Asosiy Qonunimiz asosida qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham mustahkamlab qo'yilgan. Yoshlar o'z iqtidor va iste'dodlarini to'la namoyon etishga haqlidirlar.

42-moddada esa har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi, davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi belgilangan. Mana shularning mantiqiy davomi sifatida prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta'lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo'lsa, oliy ta'lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar ustunidir.

Shu uchun ham, bu borada qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildiki, ular yoshlar intilish va iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga oid, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish yangi qadam va yangi tizimni shakllantirdi. Quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida bugungi yoshlar talab va ehtiyojlarini o'rganib, yangidan yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. Yangi yoshlar siyosatini qurishda mamlakat Prezidentining shaxsan ishtirokini alohida ta'kidlash kerak.

Davlat rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlabki pallasida tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev deyarli barcha islohotlarning bardavomligini yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatida ko'rayotganining yaqqol tasdig'i sifatida boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim islohotidir. Bu islohotlarning yutug'i esa, bu sohadagi korrupsiyaga qarshi kurashni, hamda yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini ortirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, agar jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo, ta'lim tizimidan boshlanganini ko'ramiz. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktabdir. Shu jihatdan maktablardagi ta'lim sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo'lishi lozim.

Har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla, bugungi kunda farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq, ta'lim-tarbiya bilan bevosita bog'liq.

Unutmang, yangi O'zbekiston yoshlari - kelajagimiz va istiqbolimiz poydevori.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 2023. uwed.uz
2. Oydin Ibrohimova pravacheloveka.uz
3. Odinaxon Otaxonova xs.uz
4. Fireza Muhiddinova yuz.uz